



2019-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **298,8 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **101,7 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **31,8 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **36,4 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar oyida viloyat korxonalaridan 298,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 3,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 13,7 % ga o'sishi hisoblanadi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (96,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (87,5 %) o'sishi pasaydi.

2019-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



2019-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan osh tuzi 10.2 martaga, tabiiy neft qazib olish 1,2 % ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 45,1 % ga pasaygan.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
18,3	<p>Ko'mir, ming t.</p> 	10,0	54,9 ↓
6,7	<p>Neft, ming t.</p> 	6,8	101,2 ↑
0,1	<p>Osh tuzi, ming t.</p> 	1,2	10,2m ↑
0,0	<p>Qum, ming t.</p> 	2,2	- ↑
0,0	<p>Chaqiq tosh, ming t.</p> 	6,4	- ↑

Neft qazib olish, ming.t



Ko'mir qazib olish, ming.t



Chaqiq tosh qazib olish, ming.t





Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 249,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,5 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar oyida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,2 % (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 21,2 % (19,3 %) va quyi texnologiyali - 61,8 % (62,0 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Boshqa faoliyat turlari
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)
- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,7 % (2018-yilning yanvar oyida 1,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,2 % (0,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 29,6 % (24,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % (0,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 41,9 % (47,3 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda aroq - 13,5m., osh tuzi - 10,2 %, non - 33,7%, un - 9,6 %, neft - 1,2 %, suyuq neft - 36,1 % ga oshdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, ming t.			
10,3		5,4	52,4 ↓
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
1,7		1,0	59,7 ↓
Un, ming tn			
8,5		9,3	109,6 ↑

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--------------------------------------	---	--------------------------------------	-------------------

Aroq, ming l.

12,0



162,7

13,5m



Dizel yoqilg'isi, ming t.

1,1



0,8

79,4



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,2 % ni) tashkil etdi.


2019-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi – 10,3 % ga oshganligi va elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan (95,1 %) pasayganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--------------------------------------	---	--------------------------------------	-------------------

Elektroenergiya, mln.kVt/s

0,0



0,3

-



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

9,5



7,5

78,2



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

9,5



7,5

78,2



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metall bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 25,1 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 5,8 martaga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 17,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--------------------------------------	---	--------------------------------------	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

742



928

125,1



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm

441,1



519,7


117,8



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 95,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar oyiga nisbatan 14,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati




2018-yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 54,9 % dan 2019-yilning yanvar oyida 59,5 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 50,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari hissasiga to'g'ri kelyapti.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,2 %), Jarqo'rg'on (21,1 %), Denov (17,6 %) va Sho'rchi (11,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi 2018-yil yanvar oyiga nisbatan %



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 26,1 %), Termiz shahar (15,5 %), Sho'rchi (14,8 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sishi 2018-yil yanvar oyiga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 108,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Termiz (99,3 %), Uzun (84,8 %), Sariosiyo (62,8 %), Sherobod (61,0 %) va Qiziriq (52,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sho'rchi (18,1 %), Jarqo'rg'on (20,9 %), Angor (23,0 %) tumanlari va Termiz shahrida (29,6 %) kuzatildi.


2019-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2062 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 459 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,3 %) Termiz shahriga, 218 tasi (10,6 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 fevral holatiga)



2019-yil yanvar oyida viloyatda 150 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 17,3 foizi Denov tumani, 12,7 foizi Termiz shahri, 10,0 foizi Sho'rchi tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (76) 223-07-24